

**BOLALAR BOG‘CHASI YOSHIDAGI BOLALAR MUZEYDA****Bozorova O‘g‘iloy Shavkat qizi***Kamoliddin Behzod nomidagi milliy rassomlik va
dizayn instituti 1-bosqich talabasi*

Bolalar bog‘chasi yoshidagi bolalar san‘at muzeyining eng kichik tashrif buyuruvchilari hisoblanadilar. 3 yoshdan 6 yoshgacha bo‘lgan davr shaxs shakllanishining dastlabki bosqichi bo‘lib, ushbu davrda shaxsning keyingi rivojlanishiga ta’sir etuvchi xususiyatlar asos solinadi. Shuning uchun muzey-pedagogika faoliyatida kichik yoshdagi bolalar bilan ishlashning metodik jihatlariga alohida e’tibor qaratish zarur.

Yuqorida ta’riflangan yosh davrida bolalarning atrof-muhitni idrok etish qobiliyati kengayadi va chuqurlashadi. Xotira va tafakkur asosan naglyad-obrazli (ko‘rgazmalitashvirli) xususiyatga ega bo‘lib, tasavvur (xayol) faol rivojlanadi. 5–6 yoshga kelib, ba’zi ruhiy jarayonlar ustidan ixtiyoriy nazorat qilish imkoniyati yuzaga chiqadi, biroq beixtiyorlik hali ham ularning asosiy xususiyati bo‘lib qoladi.

E’tibor tobora barqaror va uzoq muddatli tus oladi, shu bilan birga, bolalarda faoliyatni rejalashtirish va tashkillashtirish qobiliyati ma’lum darajada shakllana boshlaydi. Bu yoshdagi bolalarda tengdoshlari va ayniqsa kattalar bilan so‘z orqali muloqotga bo‘lgan ehtiyoj kuchli bo‘ladi.

Ular yuqori darajada vizual faollikka ega: turli vizual obyektlarni diqqat bilan ko‘zdan kechiradilar, ularning shakl, rang, tekstura kabi xos xususiyatlarini payqaydilar va bu xususiyatlarga oid ko‘plab savollar beradilar. Bu esa bolalarda badiiy muzeyga tashrif buyurish hamda uning ekspozitsiyasi bilan ishlash uchun zarur bo‘lgan psixologik tayyorgarlik mavjudligidan dalolat beradi.

Maktabgacha yoshdagi bolalar faoliyatining yetakchi turi o‘yin hisoblanadi. Uning mazmuni va xarakteri bolaning yoshi ortishi bilan bosqichma-bosqich o‘zgarib boradi. Masalan, 1–3 yoshli bolalarning o‘yini oddiy predmetlar bilan manipulyatsiya qilish xususiyatiga ega bo‘lsa, 4–5 yoshga kelib u syujetli-rolli shaklga o‘tadi va bu holat bolaning ijtimoiylashuv jarayoniga faol ta’sir ko‘rsatadi. Kattalarga taqlid qilgan holda bola o‘ziga tanish hayotiy vaziyatlarni o‘yin orqali soddalashtirilgan darajada namoyon etadi va shu orqali ushbu vaziyatlarda harakat qilish tajribasini o‘ziga xos shaklda o‘zlashtiradi.

Muhimi, o‘yin jarayonida bolaning badiiy rivojlanishi uchun zarur bo‘lgan bir qator psixik xususiyatlar faollashadi. Bu ijodiy tasavvur, fantaziya hamda mimika, jismoniy harakat (plastika) va nutqiy intonatsiya orqali rol obrazining xarakteri va emotsional holatini ifodalash qobiliyatini o‘z ichiga oladi. Syujetli-rolli o‘yin shuningdek bolaning kommunikativ ko‘nikmalarini shakllantirishga, boshqalar bilan ijtimoiy munosabatlarni boshqarish tajribasini orttirishga ko‘maklashadi.





Shu bilan birga, maktabgacha yoshdagi bolalarning badiiy rivojlanishi o'ziga xos xususiyatga ega: ular, odatda, tayyor badiiy asarlarni qabul qilishdan ko'ra, o'z ijodiy faoliyatiga ko'proq moyil bo'ladilar. Bolalar o'z vaqtining katta qismini yopishtirish, rasm chizish, sodda konstruktorlar bilan ishlash kabi tasviriy faoliyat turlariga bag'ishlaydilar. Bunday faoliyatlar bolaning tafakkurini, ijodiy tasavvurini, sezuvchanlik (sensorika) qobiliyatlarini rivojlantiradi.

Shu bois, tasviriy faoliyat bolaning atrof-muhitni anglashining samarali vositasi bo'lib, uning kelgusida real hayot bilan faol va ongli o'zaro aloqaga kirishishiga zamin yaratadi.

Maktabgacha yoshdagi bolalarning rasmlari yorqin obrazlilik, dekorativlik va rangning kuchli ta'siri, chiziq, siluet va kompozitsiyaning ifodaviyligi bilan ajralib turadi. Stil jihatdan (konturning ifodaviyligi, rangli pyatnolarning ishlatilishi) ular arxaik san'at shakllariga yaqin hisoblanadi. Shu sababli, bolalarning san'at asarlarini ekspozitsiyada qabul qilishi ham ko'p jihatdan ularning tasviriy ijodiyoti xususiyatlariga mos keladi.

Masalan, maktabgacha ta'lim muassasalarining kichik guruhidagi bolalar rasmni asosan tanish belgilar orqali qabul qiladilar. Rasmda katta, yorqin va to'liq ko'rinadigan obyektlarni tanish bolaga zavq bag'ishlaydi. Ushbu qabul qilish bosqichida bola uchun eng muhim jihat — bu faqatgina predmetning fizik xususiyatlarini anglash emas, balki uning tasvir orqali ifodalangan obrazini tushunishdir. Ya'ni, rasmdagi obyekt – real narsaning o'rnini bosuvchi tasvir sifatida qabul qilinadi va u rasm yuzasidagi pyatnolar, chiziqlar va shakllar tizimi orqali “tanish” bo'lib ko'rinadi. Xuddi shunday holat hajmli skulpturalarda ham kuzatilishi mumkin.

Xalq amaliy san'ati ekspozitsiyasida bolalarni uy-ro'zg'or buyumlarining tanish shakllarini ko'rish jarayoni o'ziga jalb qiladi. Ularni bu buyumlarning g'ayrioddiy shakli, yorqin ranglari, obrazli-plastik yechimi, shuningdek omamental naqqoshlik, relief yoki tasviriy detal (masalan, qushcha, otcha va h.k.) ko'rinishidagi bezaklar alohida qiziqtiradi.

O'rta yosh guruhiga mansub maktabgacha yoshdagi bolalarda ko'rish orqali qabul qilish jarayonida tafakkur faollashadi: bola mustaqil ravishda yoki kattalar ko'magida obyektni tanib olishda muhim belgilarni ajratishga qodir bo'ladi. Muzey ekspozitsiyasida bunday muhim belgilar sifatida predmetning shakli, o'lchami, rangi, materiali va ayrim detallari, ya'ni faqat o'ziga xos xususiyatlari xizmat qilishi mumkin.

5–6 yoshli bolalar san'at asarlarida aks etgan voqea va obrazlarni his etish, emotsional qabul qilish qobiliyatiga ega bo'ladilar — albatta, bu ularning hali cheklangan bo'lgan shaxsiy hayotiy tajribasi doirasida namoyon bo'ladi.

Ushbu yoshda bolalarning rasmlarida mavzular va syujetlar tobora murakkablashib, har xillik kasb etadi. Rasmdagi voqea yoki qahramonga nisbatan shaxsiy va



emotsional munosabat (baho) yaqqol ko'rina boshlaydi. Muzey ekspozitsiyasida ham bolalarni endi to'liq rivojlangan syujetga ega bo'lgan asarlar, harakatli voqealar qiziqтира boshlaydi. Qahramonlarning qilmishlari bolalar tomonidan emotsional-axloqiy nuqtayi nazardan baholanadi ("yaxshi", "yomon", "mehribon", "zo'ravon", "jasur", "qo'rqq", "rostgo'y", "yolg'onchi" va h.k.).

Bolalar rasmning rang yechimiga faol ravishda e'tibor qaratadilar. Ular o'z ijodiy faoliyatida bo'lgani kabi, rasmdagi rangni ham ko'p hollarda syujet yoki personajning emotsional-baholovchi xususiyatini aks ettiruvchi vosita sifatida qabul qiladilar.

Maktabgacha yoshdagi bolalarda kuzatiladigan qabul qilish va badiiy ijod xususiyatlari, san'at muzeyida ular bilan olib boriladigan ishning qator metodik tamoyillarini belgilab beradi:

Muzeyga tashriflar yil davomida 3–4 martadan ko'p bo'lmasligi lozim, har bir tashrif davomiyligi esa 45–50 daqiqadan oshmasligi kerak. Shuni unutmaslik zarurki, maktabgacha yoshdagi bola uchun asosiy faoliyat turi – o'yin va tasviriy ijod hisoblanadi; bola atrofdagi dunyo haqidagi tasavvurlarni aynan shu jarayonlar orqali shakllantiradi.

Dars samaradorligi pedagogning guruh ustidan psixologik nazorati hamda muzey ekspozitsiyasidagi ish sharoitlariga bog'liq. Ekspozitsiya zallaridagi shovqin, tashrif buyuruvchilarning harakati va suhbatlari, boshqa guruh ekskursovodining ovozi va shu kabi omillar bolalar diqqatining tezlik bilan parokanda bo'lishiga, charchashning ortishiga hamda o'tkazilayotgan mashg'ulot materialining puxta o'zlashtirilmasligiga olib keladi.

Muzey ekspozitsiyasidagi mashg'ulotlarning ko'zga ko'ringan mazmuni va xususiyatlari katta ahamiyatga ega. Mashg'ulot mavzulari bolalarning hayotga oid qiziqishlari doirasiga mos bo'lishi va qabul qilinayotgan materialning tushunish darajasiga muvofiq bo'lishi kerak. Bu mavzular tabiat hayotini aks ettiruvchi san'at asarlari («Peyzaj»), inson his-tuyg'ulari va xarakteri («Portret»), atrofdagi hayot voqealari (bolalarga tushunarli darajada), buyumlar olamining go'zalligi va xilma-xilligi («Natyurmort») kabi sohalarni o'z ichiga olishi mumkin. Maktabgacha yoshdagi bolalar bilan muzey ekskursiyasini tashkil etishda ko'rgazmalarni kontrast tamoyiliga asoslanib tuzish muhimdir — ya'ni turli xil ko'rinishlar, janrlar, uslublar va individual badiiy manerlar almashtirilib taqdim etiladi. Ehtiyojga ko'ra muqoasa usulidan foydalanish esa eksponatni qabul qilishni yengillashtiradi va bolalarning charchashini kamaytiradi.

Maktabgacha yoshdagi bolalar bilan ekskursiya mashg'ulotlarining metodikasi tasavvur, sezgilar va emotsional sohalarni rivojlantirishga qaratilgan bo'lib, shu bilan birga bolalarga san'at haqida ular uchun tushunarli shaklda va miqyosda bilim berishni ham o'z ichiga oladi.

Mashg'ulotlar jarayonida nohatti va o'yin usullaridan foydalanish katta ahamiyatga ega. Bu yerda mustaqil ravishda chizilgan rasmlar va ijodiy topshiriqlar, turli xil



didaktik o'yinlar hamda rivojlantiruvchi mashqlar nazarda tutiladi. Shu bilan birga, mashg'ulotlarda vizual usullar va muloqot prinsiplariga rioya qilish muhimdir. Har bir bolaning individual faoliyati va mustaqilligini aniqlashga intilish, shuningdek ularning muloqot ko'nikmalari hamda taassurotlarni birgalikda muhokama qilish (jamoaviy ish ko'nikmalari) qobiliyatlarini shakllantirishga e'tibor qaratiladi.